

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK KREATIVLIKNING AMALIY DOLZARBLIGI

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

PRACTICAL RELEVANCE PEDAGOGIKAL CREATIVITY IN PRESCHOOL EDUCATION

Rayimova Shahnoza Sodiqovna

FarDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Uzluksiz ta'limning ilk bosqichi, xususan, maktabgacha ta'limda tarbiyachi-pedagogning kreativ kompetensiyasi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida belgilanadi. Zotan, pedagogik kreativlik nafaqat tarbiyachining kasbiy mahorati darajasini ifodalashni, balki ta'lim jarayonining samaradorligini nazarda tutuvchi innovatsion pedagogik kategoriya sifatida ham ilmiy yondashuvni talab etadi. Ushbu tezisda pedagogik kreativlikning mazmuni, tarkibiy tuzilishi, nazariy asoslari va amaliy ko'rinishlari tahlil qilinadi.*

Аннотация: *На первом этапе непрерывного образования, в частности, в дошкольном образовании, творческая компетентность воспитателя-педагога определяется как основной фактор, определяющий качество образования. Ведь педагогическое творчество требует научного подхода не только для выражения уровня профессионального мастерства, воспитателя, но и как инновационная педагогическая категория, подразумевающая эффективность образовательного процесса. В статье анализируются содержание, структурная структура, теоретическая основы и практические проявления педагогического творчества.*

Abstarct: *At the first stage of continuous education, in particular, in preschool education, the creative competence of the educator-pedagogue is determined as the main factor determining the quality of education. After all pedagogical creativity requires a scientific approach not only to express the level of professional skills of the educator, but also as an innovative pedagogical category that implies the effectiveness of the educational process. This thesis analyzes the content, structural structure, theoretical foundations and practical manifestations of pedagogical creativity.*

Kalit so'zlar: *kreativlikm pedagog, yondashuv, tamoyil, sifat, qobiliyat, bola, ta'lim jarayoni, ijodiy muhit, integratsiya.*

Ключевые слова: *креативность, педагогика, подход, принцип, качество, способность, ребенок, образовательный процесс, творческая педагогика, интеграция.*

Keywords: *creativity, pedagogy, approach, principle, quality, ability, child, educational process, creative environment, integration.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida bola shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi muhim pedagogik masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatda ta'lim tizimidan kutilayotgani kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, tashabbuskor shaxslarni tarbiyalashdir. Bu jarayonning boshlang'ich nuqtasi maktabgacha ta'lim ekan, pedagogik kreativlik mazkur bosqichda dolzarb pedagogik hodisa sifatida baholanishi zarur.

Pedagogik kreativlik — bu tarbiyachi tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida yangicha metodlar yaratish, mavjud tajribalarni ijodiy qayta ishlash, bolaga individual yondashuv asosida samarali faoliyat muhitini tashkil eta olish qobiliyatidir. Shuningdek, bu tarbiyachining ta'lim-tarbiya jarayoniga noodatiy, original, samarali g'oyalar va yechimlarni kiritish qobiliyati bo'lib, har bir bolaga mos rivojlantiruvchi sharoit yaratish jarayonida namoyon bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, kreativ pedagog:

- muammolarga noodatiy yechim topa olishi,
- o'yin faoliyatiga innovatsion yondashuv qo'llay bilishi;
- har bir bolaga mos individual rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqa olishi

lozim.

Amaliy dolzarblikning asosiy omillarini quyidagicha ko'rishimiz mumkin:

Bolaning tabiiy ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga asosan, maktabgacha yosh–ijodiy tasavvur eng faol shakllanadigan davr. Kreativ pedagog:

- erkin ijod qilish imkoniyatini yaratishi;
- ko'p variantli yechimlarni qo'llab-quvvatlashi;
- savol berishga va tajribalar o'tkazishga undaydi. Bu esa bolaning keyingi

bosqichlardagi intellektual rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Har bir bolaga individual yondashuv tamoyiliga asosan, tarbiyachi ijodkorlik yo'q ekan, bolalarning individual rivojlanish sur'ati va qiziqishlariga mos ta'limni tashkil etish qiyin kichadi. Kreativlik differensial ta'limni, moslashtirilgan o'yin va faoliyatlarni, individual rivojlantirish dasturlarini yaratishni oson va qulaylashtiradi.

Jamiyat va ta'lim talablari bilan uyg'unlik mezoniga muvofiq, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida kreativ tafakkurga ega yosh avlodni tarbiyalash strategik vazifaga aylangan deyish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat standartlari ham tarbiyachining innovatsion faoliyati, ijodiy pedagogik kompetensiyasi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi

kabi ko'nikmalarni talab etadi.

Shu o'rinda aytish joizki, tarbiyachining pedagogik kreativligi undagi:

- a) Yangicha pedagogik g'oyalar yaratishida;
- b) Bolaga shaxs sifatida individual yondashuvda;
- c) O'yinlar va mashg'ulotlarda innovatsiyalar qo'llashida;
- d) Ta'lim jarayonida emotsional pozitiv muhit yaratishida namoyon bo'ladi.

Kreativ tarbiyachi har bir bolaning qiziqishini e'tiborga olgan holda maxsus topshiriqlar, o'yinlar taklif etishi, bolalar qobiliyatini ochishga yordam beradigan sharoitni shakllantirishi, bolalarda qiziqish uyg'otishi, o'yinchan, erkin, ishonchli muhit hosil qilishi, bolalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirishi g'oyat muhim.

Tarbiyachining pedagogik kreativligining tarkibiy qismlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1) Ijodiy fikrlash qobiliyati – yangi g'oyalar topish, muammolarni turlicha ko'ra olish, original vaziyatlar yaratish.

2) Pedagogik mahorat – metodlarni moslashtirish, o'yin texnologiyalarini to'g'ri qo'llash, muloqot madaniyati.

3) Kasbiy motivatsiya va ichki ehtiyoj – yangilikka ochiqlik, o'z ustida ishlash, bolalar rivoji uchun mas'uliyat hissi.

4) Emotsional-intellektual kompetensiya – bolalar bilan samimiy aloqa, empatiya, psixologik sezgirlik.

Tarbiyachining kreativligining faoliyatdagi amaliy dolzarbligi shundaki, bu orqali maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatan ijodkor, shuning uchun pedagog ham ijodkor bo'lish, kreativ tarbiyachi bolalarda mustaqil fikrlash, tasavvur, izlanish, savol berish madaniyatini rivojlantirish, bolalar bog'chasida standart yondashuv emas, individual rivojlantiruvchi ta'lim yanada ustuvor bo'lib borishini ta'minlaydi. Shuni yodda turish kerakki, tarbiyachining pedagogik kreativligi — bu nafaqat ijodkorlik, balki:

- professional yondashuv,
- innovatsion fikrlash,
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim,
- bolalarning tabiiy ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarning uyg'unlashuvidir. Pedagogik nuqtai nazarda kreativlik—bu ta'lim jarayonini, yangicha metodlar asosida tashkil etishni, mavjud tajribalarni ijodiy qayta ishlashni, tarbiyaviy vazifalarni original shakllarda hal etishni, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni ta'minlash demakdir.

Innovatsion yondashuv nuqtayi nazaridan esa, zamonaviy ta'lim innovatsiyalari pedagogik kreativlikni pedagogning digital kompetensiyasi, texnologik yangiliklarni o'quv jarayoniga tatbiq etish qobiliyati bilan integratsiyalashgan holda talqin etadi. Ya'ni, kreativlik—bu ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion strategiyalar bilan ishlash qobiliyatidir.

Pedagogik kreativlikning mazmuni va uning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat deb aytish mumkin:

Ijodiy pedagogik fikrlash: pedagogning yangicha fikrlashi uning professional faoliyatida original g'oyalar ishlab chiqish, noan'anaviy pedagogik vaziyatlarni samarali boshqarish, tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olib, ijodiy yondashuvni qo'llash imkonini yaratadi.

Pedagogik refleksiya va o'zini rivojlantirish: kreativ pedagog o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qila oladi, natijalarni baholaydi, xatolardan saboq chiqaradi va yangicha yechimlar topadi. Reflektiv yondashuv kreativlikning ajralmas qismi bo'lib, pedagogning kasbiy o'sish strategiyasini belgilaydi. Pedagogik kreativlik mazmuni tarbiyalanuvchilar bilan muloqot uslubiga ham taqaladi. Kreativ muloqot:

- ijobiy emotsional muhit,
- ochiqlik,
- hamkorlikka asoslangan ta'lim,
- bolalarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi tamoyillar asosida quriladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyiliga asosan, mazkur yondashuv har bir tarbiyalanuvchi yoki tarbiyalanuvchining psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularga mos metodlar va materiallar tanlash, individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish orqali pedagog kreativligini amalda namoyon qiladi. Pedagogik kreativlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyati shundaki, kreativ pedagog faoliyat jarayonini jonlantiradi, tarbiyalanuvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, qiziqishi va motivatsiyasini kuchaytirishga, kreativlik ta'lim jarayonini yagona qolip asosida emas, balki tarbiyalanuvchi ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etish imkonini yaratishga, yangi texnologiya, metod va yondashuvlarni samarali integratsiya qilib, ta'lim muhitini zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, pedagogik kreativlik bu pedagogning yangi g'oyalar yaratish, ta'lim jarayonini optimallashtirish, innovatsion metodlarni samarali tatbiq etish, tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks kasbiy-sifatlar majmuasidir. Uning mazmuni psixologik, pedagogik va innovatsion kompetensiyalarning uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik kreativlik ta'lim samaradorligini oshiruvchi strategik pedagogik omil sifatida e'tirof etilib, pedagogning kasbiy rivojida markaziy o'rinni egallaydi. Maktabgacha ta'limda pedagogik kreativlik bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u:

- ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishga;
- bolalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga;
- ta'lim jarayonini mazmunan boyitadi va qiziqarli qilishga;
- innovatsion pedagogik muhit yaratishga amaliy xizmat qiladi.

Shu boisdan, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda amaliy va strategik dolzarb vazifa hisoblanmoqda. Qisqacha qilib aytganda, pedagogik kreativlik bu ijodkorlikka asoslangan pedagogik fikrlash, o'qitish va tarbiyalash jarayonini yangicha tarzda tashkil eta olishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaeva, Q., Jo'rayev, R. Pedagogika: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'zbekiston Milliy nashriyoti, 2020.
2. Hasanboeva, O., Yo'ldosheva, D. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Tolipova, G. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Mavlonova, R., Rasulova, R., Xoliqova, N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2017.
5. Xoliqulova, N. O'qituvchining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish muammolari. – Toshkent: TDPU Ilmiy to'plam, 2020.
6. Yoqubova, D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2018.
7. Tohirova, S. Pedagogik innovatsiyalar va kreativlik. – Toshkent, 2022.